



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Феруз Нематуллаевич Абилов</b> Қишлоқ ҳудудларида агросервис хизматларини кўрсатувчи инсон ресурслари фаолиятини такомиллаштириш	69
<b>Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов</b> Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни баргараф этишнинг амалий йўналишлари	74
<b>Мурод Нозирович Ибрагимов</b> Перспектива развития услуг по внедрению стандартов GxP в Узбекистане	79
<b>Рустам Алижонович Мусабоев</b> Подходы к стратегическому планированию развития сферы бытовых услуг республики узбекистан	84
<b>Ulug'bek Ziyadullayevich Narmurodov</b> Pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish holati va tahlili (Samarqand viloyati misolida)	88
<b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b> Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналар самарадорлигини баҳолашни ва таҳлил қилиш усуллари такомиллаштириш	94
<b>Shohina Xujmaxmatovna Pirova</b> Ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	98
<b>Nodira Abdullayevna Eshquvvatova</b> Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash	102
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева</b> Ўзбекистонда музей туризмни бозорини ривожлантириш йўллари	107
<b>Дилбар Хасановна Асланова, Маликабону Фуркатовна Раупова</b> Совершенствование организационно-экономического механизма развития малого гостиничного бизнеса	113
<b>Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов</b> Зиёрат туризмида кўрсатиладиган хизматлар турларини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари ва тавсифи	116
<b>Райхона Садриддиновна Амриддинова</b> Ребрендинг как стратегический инструмент повышения конкурентоспособности гостиничных предприятий	121
<b>Ikrom Abdurashitovich Shukurov</b> Turizm sohasining barqaror rivojlantririshda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi	124
<b>Sarvar Adxamovich Abduxamidov</b> Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari	130
<b>Дониёр Журакулович Абдуразаков</b> Туризм қишлоғи концепцияси ва унинг назарий-илмий тавсифлари таҳлили	135
<b>Mekhruza Sukhrobjon qizi Vafokulova</b> The role of family-owned businesses in the sustainable development of tourism in Samarkand	138
<b>Diyora Narzieva</b> Modern approaches to the development of cultural tourism	144
<b>Sadoqat Quدراتовна Bultakova</b> Xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashning Yaponiya tajribasi	150

<p><b>R.Amriddinova</b></p> <p><b>Rebranding mehmonxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda strategik vosita sifatida</b></p> <p><b>Annotatsiya.</b> Ushbu maqolada mehmonxona brendi konsepsiyasini ishlab chiqishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Bunda vizual identifikatsiya, kommunikatsiya strategiyasi va mahalliy xususiyatlarini uyg'unlashtirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi. Mehmonxonalar bozorida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida, o'ziga xos va haqiqiy brend yaratish barqaror rivojlanish hamda boshqalardan ajralib turishning muhim omilga aylanmoqda.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> mehmonxona brendi, rebranding, vizual identifikatsiya, madaniy identifikatsiya, hissiy marketing, SMM strategiyalari, raqobatbardoshlik.</p>	<p><b>R.Amriddinova</b></p> <p><b>Rebranding as a strategic tool for enhancing the competitiveness of hotel enterprises</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyzes modern approaches to the development of a hotel brand concept, including visual identity, communication strategy, and the integration of regional characteristics. In the context of intense competition in the hotel market, the creation of a unique and authentic brand becomes a key factor for sustainable development and differentiation.</p> <p><b>Keywords:</b> hotel branding, rebranding, visual identity, cultural identity, emotional marketing, SMM strategies, competitiveness.</p>
--	--

**Ikrom Abdurashitovich Shukurov** – Qarshi davlat texnika universiteti, Biznes va boshqaruv kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

### TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

<p><b>Annotatsiya.</b> Ushbu ilmiy maqolada mintaqa turizm sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalarida bandlikni oshirish strategiyalari ishlab chiqish, green tourism strategiyalari joriy etish, mavsumiylik va iqtisodiy shoklarga moslashuvchan boshqaruv imkoniyatlarini yaratish, ekoturizm strategiyalari orqali daromadni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ya'ni mintaqa turizm sohasini barqaror rivojlantirishda ilg'or xorijiy amaliyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish jarayonini bosqichma-bosqich ifodalash metodikasi ishlab chiqilgan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> turizm, Error Correction Model, Turizm Barqarorlik Indeksi (TBI), ekologik indikator, YAIM, xalqaro talab, mahalliy talab, infratuzilma, investitsiya.</p>
---

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yigirma yil ichida xalqaro sayohatchilar soni 2,5 barobardan ortiq oshgan, bu esa global YAIMning 10% ga yaqinlashishini ta'minlamoqda. Shu bois, turizm sohasida barqaror rivojlanish konsepsiyasi va ekonometrik modellashtirish usullarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribani o'rganish, eng avvalo, ilg'or davlatlarda qo'llanilayotgan prognozlash, indikator tizimlarini shakllantirish, va strategik boshqaruv yondashuvlarini aniqlash imkonini beradi[1]. Bu jarayon O'zbekiston sharoitida mintaqa turizmining rivojlanishini ilmiy asosda boshqarish uchun muhim poydevor yaratadi. Xorijiy tajribani o'rganish zaruriyati, birinchi navbatda, mahalliy turizm boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali qarorlar qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'plab rivojlangan mamlakatlar – masalan, Ispaniya, Italiya, Singapur, Janubiy Koreya – turizm sohasida Panel Data modellar, Vector Autoregression (VAR), Cointegration Analysis va Computable General Equilibrium (CGE) modellaridan samarali foydalanmoqda. Bu modellar orqali nafaqat turizm oqimlari prognoz qilinadi, balki ekologik barqarorlik, bandlik va investitsiya samaradorligi ham chuqur tahlil qilinadi. Mahalliy sharoitga moslashtirilgan bunday modellar, O'zbekiston mintaqalarida turizm infratuzilmasi va xizmatlar sifatini oshirishga, ekologik yuklamani kamaytirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasining barqaror rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishdan samarali foydalanayotgan ayrim davlatlar, ular qo'llagan modellari, asosiy yo'nalishlari, natijalari va o'ziga xos xususiyatlari 1- jadvalda keltirilgan.

Borrego-Domínguez, S., Isla-Castillo, F., & Rodríguez-Fernández, M. tadqiqotlarida empirik izlanishda 2000–2020 yillardagi turizm talabini o'rganish maqsad qilingan. Turistlar soni (sayyohlar kelib tushishi) asosiy model natijasi sifatida qabul qilinib, 14 Yevropa davlatidan

1- jadval

**Turizm sohasining barqaror rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishdan samarali foydalanuvchi davlatlar**

Davlat	Qo‘llanilgan modellari	Asosiy yo‘nalish	Natija	Xususiyati
Ispaniya[2]	Dynamic Panel GMM, Panel VAR	Turizm oqimlari, daromad va bandlik darajasi o‘zgarishini prognozlash	Mintaqalar kesimida iqtisodiy ta’sir baholangan, bandlikni oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan	Talab va iqtisodiy o‘rta o‘rtasidagi bog‘liqlik kointegratsiya tahlili bilan aniqlangan
Singapur[3]	Integratsiyalangan barqarorlik indeksi (ESI + TSDI)	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik indikatorlar majmuasida turizmni baholash	Ekologik izni kamaytirish va green tourism strategiyalari joriy etilgan	Xizmat sifati indeksi asosiy indikator sifatida kiritilgan
Turkiya[4]	ARDL modeli	Turizm talabiga makroiqtisodiy omillar ta’sirini baholash	Mavsumiylik va iqtisodiy shoklarga moslashuvchan boshqaruv imkoniyati	Mahalliy va xalqaro turizm segmentlari alohida modellarda baholangan
Yaponiya[5]	CGE modeli	Turizmning iqtisodiy va ekologik ta’sirini kompleks baholash	Ekoturizm strategiyalari orqali daromadni oshirish va ekologik muvozanatni saqlash	Karbon izni kamaytirish ssenariylari prognozlangan

keladiganlar asosida panel arxitektura tuzilgan. Error Correction Model (Engle–Granger 1987) panel kontekstda qo‘llanilib, vaqt qatori tuzilmasi asosida model strukturasi belgilangan. Mavjud model spurious regressiya xavfini kamaytirishga mo‘ljallangan va turizm talabiga ta’sir etuvchi omillar aniqroq aniqlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada “Xorijiy tajribani o‘zlashtirish metodologik sxemasi”dan, ya’ni, mintaqa turizm sohasini barqaror rivojlantirishda ilg‘or xorijiy amaliyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish jarayonini bosqichma-bosqich ifodalash metodikasidan foydalanilgan. Birinchi bosqich – *Xorijiy tajribani o‘rganish*. Ikkinchi bosqich – *Ilg‘or modellar va indikatorlarni aniqlash*. Uchinchi bosqich – *Mahalliy sharoitni tahlil qilish*. To‘rtinchi bosqich – *Moslashtirish jarayoni*. Beshinchi bosqich – *Ekonometrik tahlil*. Yakuniy bosqich – *Amaliy natijalar*.

**Tahlil va natijalar.** Olingan natijalar asosida prognozlash, siyosiy qarorlarni asoslash, investitsiya samaradorligini baholash va barqarorlik monitoringi amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi. Shu tarzda xorijiy tajriba mahalliy turizm boshqaruv tizimiga ilmiy asoslangan va samarali tarzda integratsiya qilinadi.

**Ispaniya turizm talabini prognozlash modelini** O‘zbekiston sharoitida tatbiq qilish bo‘yicha tahliliy moslashtirildi (2-jadval).

Moslashtirilgan modelning tuzilma diagrammasi natijasida o‘zgaruvchi (Dependent variable) turistlar oqimi (ichki + tashqi), Mustaqil o‘zgaruvchilar quyidagilardan iborat:

1. Mintaqa YAİM
2. Mehmonxona o‘rinlari soni
3. Turizm xizmatlari narx indeksi
4. O‘rtacha qolish muddati
5. Xalqaro talab (xorijiy turistlar soni)

6. Mahalliy talab (ichki turistlar soni)

2-jadval

**Model tuzilmasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning asosiy indikatorlari**

Ispaniya modelidagi indikator	O‘zbekiston sharoitida moslashtirilgan indikator	Ma’lumot manbasi
YAIM (GDP)	Mintaqa YAIM (viloyatlar kesimida)	O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi
Joylar soni (Beds)	Mehmonxona va turistik obyektlar yotoq o‘rinlari soni	Turizm qo‘mitasi, Davlat statistika ma’lumotlari
Narx indeksi	Turizm xizmatlari narxlari indeksi	Davlat statistika qo‘mitasi
Qolish davomiyligi	O‘rtacha turistik qolish muddati (kun)	So‘rovlar, mehmonxona hisobotlari
Xalqaro talab	Chet ellik sayyohlar soni	Davlat statistika qo‘mitasi, chegara xizmatlari
Mahalliy talab	Ichki turistlar soni	So‘rovlar, hududiy turizm boshqarmalari

O‘zbekiston sharoitidagi amaliy qo‘llash uchun model asosida 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan turizm oqimlari prognozlarini tuziladi. Masalan, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida alohida tahlil qilish orqali hududlar bo‘yicha rivojlanish istiqbollari aniqlanadi. Bunda strategik qarorlar:

- YAIMni oshirishga bevosita ta’sir qiluvchi turizm loyihalarini ustuvorlashtirish;
- mehmonxona o‘rinlari sonini oshirish va xizmat sifatini yaxshilash;
- narx raqobatbardoshligini ta’minlash.

Singapurdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik indikatorlar asosida turizmi baholash metodikasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun, Singapurda turizm barqarorligini baholashda ishlatilgan indikatorlardan foydalanamiz.


3-jadval

**O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan indikatorlar**

Yo‘nalish	Asosiy indikator (Singapur)	O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan indikator	Ma’lumot manbasi
Iqtisodiy	Turizm daromadi (mln SGD)	Viloyatlar kesimida turizm xizmatlari daromadi (mln so‘m)	O‘zStat, Turizm qo‘mitasi
	YAIMga hissa (%)	Hudud YAIMiga turizm hissasi (%)	O‘zStat
	Investitsiya hajmi	Turizm infratuzilmasiga investitsiya hajmi	Investitsiyalar vazirligi
Ijtimoiy	Bandlik (turizm sektori)	Turizmda band aholi ulushi (%)	O‘zStat, Mehnat vazirligi
	Xizmat sifati indeksi	Mehmonxona va turistik xizmatlar sifati indeksi	So‘rovlar, sertifikatlash agentligi
	Madaniy merosni saqlash	Restavratsiya ishlari soni, meros obyektlarining holat indeksi	Madaniyat vazirligi
Ekologik	Chiqindilar hajmi (tonna)	Turistik hududlarda chiqindilar hajmi (tonna)	Ekologiya qo‘mitasi
	Energiyani tejash	Turizm obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Energetika vazirligi
	Karbon izi (CO <sub>2</sub> tonna)	Turizm faoliyatidan chiqadigan CO <sub>2</sub> miqdori	Ekologiya qo‘mitasi

Singapurdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik indikatorlar asosida turizmini tahliliga asoslanib O‘zbekiston sharoitida turizm barqarorligini baholash modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Rasm Singapur tajribasiga asoslangan holda O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan turizm barqarorligini baholash modelini ifodalaydi. Model uchta asosiy indikator guruhidan iborat:

iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik. Ushbu indikatorlar integratsiyalangan indeks shaklida baholanadi va panel data asosida ekonometrik tahlil qilinadi. Natijada Turizm Barqarorlik Indeksi (TBI) hisoblanadi, viloyatlar reytingi tuziladi va investitsiya ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi.



**1-Rasm. Turizm barqarorligini baholash uchun integratsiyalashgan yondashuv**

Halicioğlu, F. tadqiqotida 1960–2002 yillar Turkiyaga keluvchi umumiy turistlar soni (total tourist arrivals)ni iqtisodiy variablar — global daromad (world income), nisbiy narxlar (relative prices), hamda transport xarajatlari (transportation cost) orqali tahlil qiladi. Uning tadqiqot *Autoregressive Distributed Lag (ARDL)* yondashuvi Vositanov–Pesaran (2001) taqdim etgan “bounds testing” usuliga asoslanadi. Qisqa va uzoq muddatli elastiklarni aniqlash uchun ishlatilgan. Shuningdek, model barqarorligini tekshirish uchun *CUSUM* va *CUSUMSQ* testlari qo‘llanilgan. Bunda global daromad — turistlar soniga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan omil bo‘lib chiqdi. Turizm talabining barqaror modeli aniqlanib, siyosiy qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

4-jadval

**Tadqiqot natijalari jadvali**


O‘zgaruvchi	Qisqa muddatdagi ta’sir	Uzoq muddatdagi ta’sir	Izoh
<b>Global daromad (World Income)</b>	+ sezilarli	+ kuchli	Global iqtisodiy o‘shish Turkiya turizm talabini oshiradi.
<b>Nisbiy narxlar (Relative Prices)</b>	– sezilarli	– kuchli	Narxlarning yuqoriligi talabni pasaytiradi.
<b>Transport xarajatlari</b>	– zaif	– sezilarli	Transport xarajatlarining oshishi uzoq muddatda turistlar sonini kamaytiradi.

ARDL-bounds testi yordamida kointegratsiya aniqlangan. Qisqa va uzoq muddatli elastikliklar o‘lchangan. CUSUM va CUSUMQ testlari modelning barqarorligini tasdiqlagan. Turkiya modelini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish rejasining asosiy bosqichlari ma’lumotlar bazasini shakllantirish, global daromad o‘rniga asosiy turist jo‘natuvchi davlatlar YAIMi (Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Turkiya, Yevropa mamlakatlari), nisbiy narxlar, O‘zbekiston turizm xizmatlari narx indeksini xalqaro indekslar bilan taqqoslash, transport xarajatlari, aviabilet va boshqa transport turlari bo‘yicha o‘rtacha xarajatlar.

**Ikkinchi bosqich modelni moslashtirish**, ARDL modeli tuzish (1960–2002 kabi uzun qator bo‘lmasa ham, 2005–2024 oralig‘ida) qisqa va uzoq muddatli elastikliklarni hisoblash. Natijada qaysi omillar talabni eng ko‘p oshirishi va kamaytirishini aniqlash va narx siyosati

hamda transport infratuzilmasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston uchun ARDL asosida turizm talabini baholash modeli O'zbekiston sharoitiga moslashtirish asosida ishlab chiqilgan. Modelning asosiy mustaqil o'zgaruvchilari — asosiy turist jo'natuvchi davlatlar YAImi, O'zbekiston turizm xizmatlari narx indeksi va transport xarajatlari. Model yordamida qisqa va uzoq muddatli elastikliklar aniqlanadi, turizm talabi prognoz qilinadi va strategik tavsiyalar ishlab chiqiladi.



**2-Rasm. ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli asosida turizm sohasida talab va transport siyosati**

Ushbu rasma ARDL modeli asosida turizm sohasida talab va transport siyosatini tahlil qilish yondashuvini aks ettiradi. **Asosiy** turist jo'natuvchi davlatlar YAImi (Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Yevropa) turizm oqimini belgilovchi muhim makroiqtisodiy omil sifatida olinadi. Ularning iqtisodiy holati turistlar soniga bevosita ta'sir qiladi. O'zbekiston turizm xizmatlari narx indeksi xalqaro narxlar bilan taqqoslanadi, bu esa raqobatbardoshlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Transport xarajatlari (avia, avtobus, temiryo'l) turizm talabini shakllantiruvchi asosiy xarajat komponentlaridan biri bo'lib, ARDL modelida mustaqil o'zgaruvchi sifatida ishlatiladi. ARDL modeli yordamida qisqa va uzoq muddatli elastiklik baholanadi, bu esa narx va transport xarajatlari o'zgarishiga talabning qanday javob berishini aniqlash imkonini beradi.

Natijada talab prognozi tuziladi, bu turizm sohasida kelajak rejalashtirish uchun muhim hisoblanadi. Model natijalariga asoslanib narx va transport siyosati bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu siyosatlar turizm xizmatlarining jozibadorligini oshirishga qaratiladi. Yakuniy bosqichda transport infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasi belgilanadi, bu turistlar oqimini oshirish va mintaqaviy bog'lanishni kuchaytirishga xizmat qiladi.


Kitamura, Y., Ichisugi, Y., Karkour, S., & Itsubo, N. maqolada Yaponiyada turizmning karbon izini (CO<sub>2</sub> emissiyalari) turli iste'mol segmentlari bo'yicha aniqlash uchun LCA (hayot aylanishi bahosi) va Input–Output tahlil usullari birgalikda qo'llanilgan[6]. Natijada yiliga taxminan 136 million tonna CO<sub>2</sub> emissiyasi aniqlangan. Turizm koridoridagi emissiya bo'linishi: transport – 56,3%, sovg'a-suvenirlar – 23,2%, yoqilg'i (to'g'ridan to'g'ri) – 16,9%, mehmonxona – 9,8%, ovqat va ichimlik – 7,5%, qiziqarli faoliyatlar – 3,0%. Yaponiya turizm sektorida iqtisodiy va ekologik ta'sir bahosi.

**Asosiy natijalar**

Kategoriya	CO <sub>2</sub> emissiya ulushi (%)
Transport	56.3
Souvenirs	23.2
Direct fuel	16.9
Hotels	9.8
Food & Drinks	7.5
Activities	3.0

Ushbu natijalar Yaponiyada turizm sektorida eng katta CO<sub>2</sub> emissiya manbai transport ekanligini ko‘rsatadi (56,3%). Shuningdek, sovg‘a-suvenirler va yoqilg‘i iste‘moli ham sezilarli hissaga ega. Mehmonxona, ovqat-ichimlik va turistik faoliyatlar CO<sub>2</sub> emissiyasiga nisbatan kichikroq, biroq ahamiyatli ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston turizm sektorida iqtisodiy va ekologik ta‘sir baholash modelini, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish. Model turizmning iqtisodiy va ekologik ta‘sirini birgalikda baholaydi. Modelning asosiy kirish ma‘lumotlari iqtisodiy indikatorlar (turizm daromadi, YAIMga hissa, investitsiya hajmi) va ekologik indikatorlar (CO<sub>2</sub> emissiya, chiqindilar hajmi, energiya sarfi)dan iborat. Baholashda LCA (Hayot aylanishi tahlili), Input-Output tahlili va ekonometrik modellashtirish usullari qo‘llanadi. Natijada Turizm Barqarorlik Indeksi hisoblanadi va u asosida siyosiy tavsiyalar hamda investitsiya ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi.



### 3-Rasm. Turizm barqarorligini baholash jarayonini iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlari

Rasmdagi turizm barqarorligini baholash jarayonini iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar integratsiyasi asosida ifodalaydi. Ekologik indikatorlar (CO<sub>2</sub> emissiya, chiqindilar hajmi, energiya sarfi) va iqtisodiy indikatorlar (turizm daromadi, YAIMga hissa, investitsiya hajmi) baholash metodologiyasi orqali tahlil qilinadi. Ushbu metodologiya LCA (hayot aylanishi tahlili), Input-Output tahlili va ekonometrik modellashtirish usullarini qamrab oladi. Natijada Turizm barqarorlik Indeksi (iqtisodiy + ekologik) shakllantiriladi. Bu indeks asosida siyosiy tavsiyalar (transport, ekologiya, infratuzilma) ishlab chiqiladi va investitsiya ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi. Yondashuv turizm sohasida barqaror rivojlanish strategiyasini ilmiy asoslash imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu “Xorijiy tajribani o‘zlashtirish metodologik sxemasi” mintaqa turizm sohasini barqaror rivojlantirishda ilg‘or xorijiy amaliyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish jarayonini bosqichma-bosqich ifodalaydi. Xorijiy tajribani o‘rganish bosqichida Ispaniya, Singapur, Turkiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning ilg‘or turizm boshqaruvi va modellashtirish tajribalari tahlil qilinadi. Har bir davlatning o‘ziga xos yondashuvlari, ishlatilgan indikatorlari va boshqaruv mexanizmlari aniqlanadi. Ilg‘or modellar va indikatorlarni aniqlash bosqichida Dynamic Panel GMM, ARDL, CGE modellar, integratsiyalangan barqarorlik indeks-lari kabi ilg‘or iqtisodiy-matematik vositalar ajratib olinadi. Ularning qaysi biri mintaqa turizmi-ning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik xususiyatlariga mos kelishi aniqlanadi. Mahalliy sharoitni tahlil qilish bosqichida mintaqa iqtisodiy ko‘rsatkichlari, infratuzilma darajasi, ekologik holati va ijtimoiy omillari chuqur o‘rganiladi. Bu bosqichning maqsadi – xorijiy modellarning bevosita qo‘llanish imkoniyatlarini baholashdir. Moslashtirish jarayoni bosqichida tanlangan xorijiy model va indikatorlar mahalliy statistik ma‘lumotlar, qonunchilik bazasi va infratuzilma sharoitlariga moslashtiriladi. Ekonometrik tahlil bosqichida moslashtirilgan model Panel Data, VAR, kointegratsiya tahlili kabi usullar yordamida sinovdan o‘tkaziladi va prognozlar tuziladi. Amaliy natijalar bosqichida olingan natijalar asosida prognozlash, siyosiy qarorlarni asoslash, investitsiya samaradorligini baholash va barqarorlik monitoringi amalga oshiriladi. Shu tarzda xorijiy tajriba mahalliy turizm boshqaruv tizimiga ilmiy asoslangan va samarali tarzda integratsiya qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli farmoni.
2. Borrego-Domínguez, S., Isla-Castillo, F., & Rodríguez-Fernández, M. (2022). Determinants of Tourism Demand in Spain: A European Perspective from 2000–2020. *Economies*, 10(11), 276.
3. Loh, L., Thomas, T., & Wang, Y. (2017). Sustainability Reporting and Firm Value: Evidence from Singapore-Listed Companies. *Sustainability*, 9(11), Article 2112. <https://doi.org/10.3390/su9112112>.
4. Halicioğlu, F. (2004). An ARDL Model of International Tourist Flows to Turkey. In *Global Business and Economics Review 2004 Anthology* (pp. 614–624).
5. Kitamura, Y., Ichisugi, Y., Karkour, S., & Itsubo, N. (2020). Carbon Footprint Evaluation Based on Tourist Consumption toward Sustainable Tourism in Japan. *Sustainability*, 12(6), 2219. <https://doi.org/10.3390/su12062219>.
6. Kitamura, Y., Ichisugi, Y., Karkour, S., & Itsubo, N. (2020). Carbon Footprint Evaluation Based on Tourist Consumption toward Sustainable Tourism in Japan. *Sustainability*, 12(6), 2219. <https://doi.org/10.3390/su12062219>.

<p><b>И.Шукуров</b>  <b>Зарубежный опыт эконометрического моделирования в устойчивом развитии туристической отрасли</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной научной статье представлены рекомендации по разработке стратегий повышения занятости в условиях устойчивого развития туристской отрасли региона, внедрению концепций «зелёного туризма», формированию механизмов адаптивного управления сезонностью и экономическими шоками, а также по увеличению доходов и сохранению экологического баланса посредством стратегий экотуризма. Кроме того, разработана методика поэтапной адаптации передового зарубежного опыта к местным условиям для обеспечения устойчивого развития туристской сферы региона.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туризм, Модель коррекции ошибок, Индекс устойчивости туризма (ИУТ), экологический индикатор, валовой внутренний продукт (ВВП), международный спрос, местный спрос, инфраструктура, инвестиция.</p>	<p><b>I.Shukurov</b>  <b>Foreign Experience of Econometric Modeling in the Sustainable Development of the Tourism Sector</b></p> <p><b>Abstract.</b> In this scientific article, recommendations are provided for developing strategies to increase employment within the sustainable development trends of the regional tourism sector, implementing green tourism strategies, creating mechanisms for adaptive management of seasonality and economic shocks, as well as enhancing income generation and maintaining ecological balance through ecotourism strategies. Furthermore, a methodology has been developed for the step-by-step adaptation of advanced international practices to local conditions in order to ensure the sustainable development of the regional tourism sector.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism, Error Correction Model (ECM), Tourism Sustainability Index (TSI), environmental indicator, Gross Domestic Product (GDP), international demand, domestic demand, infrastructure, investment.</p>
---	--

**Sarvar Adxamovich Abduxamidov** – SamISI, “Turizm” kafedrasi mudiri, dotsent, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqotchisi

**TURISTIK MINTAQALAR: ULARNI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISHDA RAYONLASHTIRISH XUSUSIYATLARI**

<p><b>Annotatsiya.</b> Maqolada turistik mintaqalarni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> turizm, rayonlashtirish, hudud, mintaqa, turizm industriyasi, turistik infratuzilma, turistik mintaqa, ichki turizm, kiruvchi turizm, xalqaro turizm, turistik salohiyat.</p>
---

**Kirish.** Bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirishning barcha zaruriy manbalariga ega bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, betakror tabiiy resurslariga, boy tarixiy, madaniy merosga, ichki va xalqaro turizmni jadal rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.